

Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari

Jumanazarxon Akramovich Oppog‘ov
 Inomjon To‘rayevich Jumaniyazov
 O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada davlat moliya tzimida g‘aznachilik timining tashkiliy tuzilishi va uning byudjet mablag‘larini samaradorligi oshirish hamda uning davlat moliyasini boshqarishdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti, moliya, g‘aznachilik, g‘azna hisobvarag‘i

Prospects for the development of treasury activities in the financial system

Jumanazarkhan Akramovich Oppogov
 Inomjon Torayevich Jumaniyazov
 Academy of banking and finance of Republic of Uzbekistan

Abstract: The article examines the organizational structure of the treasury team in the state financial system and ways to increase the efficiency of its budget funds and its role and importance in the management of state finances.

Keywords: state budget, finance, treasury, treasury account

So‘nggi yillarda rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulotini maqsadli qayta taqsimlash, milliy iqtisodiyotini erkin tamoyillar asosida rivojlantirish, davlat moliyaviy resurslarini yo‘nalish va xarajatlarini samarali amalga oshirish hamda nazoratini ta’minlashning muhim institutsional mexanizmi - davlat byudjeti g‘azna ijrosini uzlusiz takomillashtirib borish talab etilmoqda. Shu bois, byudjet daromadlari to‘liq va belgilangan davriylikda tushishi, xarajatlar esa, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlaydigan g‘aznachilik ijrosi tizimi yanada rivojlanishining dolzarbliги ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Davlat byudjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqat... Ushbu tuzilmalar rahbarlari va xodimlarining chuqr tushunchasiga ko‘ra,

ularning vazifasi faqatgina nazorat qilish va boshqalarni jazolashdan iborat, lekin faqat qamchi va qilich bilan ijobiy natijaga erishib bo‘lmaydi”¹

Ushbu jarayonlar davlat moliyasini boshqarishga daxldor islohotlarga mos g‘aznachilik ijrosi tizimining huquqiy-normativ asoslari rivojlantirib borilishini talab etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-360 - son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat g‘aznachilik majburiyatları va obligatsiyalarını muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-dekabrdagi 1016-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida” 82-son qarori² qabul qilinishi hamda faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi ta’milanishi, o‘z navbatida mamlakatimizda keyingi yillarda davlat byudjeti g‘azna ijrosining normativ-huquqiy asoslari takomillashayotganligi byudjet mablag‘lari oqimlarini samarali boshqarish, davlat byudjeti optimal darajada balanslanishuvini ta’minalashga qaratilganligi kuzatilmoqda.

G‘azna ijrosini tashkil etishning mazmuni davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarini, shuningdek, budget tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalar, budget tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag‘lari samarali ishlatilishini ta’minalash, davlat moliyaviy resurslari harakati to‘g‘risida tezkor tarzda ma’lumotlarni jamlash, boshqarish va nazorat qilish imkonini berdi.

Shuningdek, bu o‘rinda Davlat byudjeti ijrosini g‘aznachilik mexanizmlariga o‘tkazishning quyidagi afzalliklari ham mavjudligini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Mamlakatimizda davlat budgetining g‘azna ijrosiga o‘tishgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi “Budget tizimi to‘g‘risida”gi Qonunining 37-moddasida “Davlat budgetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat g‘aznachilik majburiyatları va obligatsiyalarını muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-dekabrdagi 1016-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida” 82-son qarori //https://lex.uz/uz/docs/5870172.

va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birqalikda amalga oshiriladi. Davlat budgetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig‘iga binoan bajaradi”³, - deb belgilab qo‘yilgan edi. Budget mablag‘lari oluvchilarining xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi budget mablag‘lari qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshirib kelindi.

Qisqa fursatlarda davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini anqilash

Davlat moliyasining holati to‘g’risida tezkor axborot larni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish

Davlat byudjetini daromadlari ham xarajatlari qismining kassa ijrosining tizimli monitoringini yuritish

Tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichi

1-rasm. Davlat budgeti ijrosini g‘aznachilik mexanizmlariga o‘tkazishning afzalliklari⁴

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, G‘aznachilik ijrosi davlat moliyaviy resurslari sarflanishi, ya’ni budget daromadlari va xarajatlari hisobi yuritilishi hamda davlat xarajatlariga moliyaviy resurslar yetarli bo‘lishini ta’minlash yuzasidan mas’ul maxsus davlat tuzilmasi hisoblanadi.

Davlat budgeti ijrosiga yo‘naltirilgan g‘aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligi ortishiga omil bo‘lmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, G‘aznachilik bo‘linmalarida davlat moliyaviy resurslarini rejalashtirish va boshqarish tartibini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi⁵ga budgetni rejalashtirish jarayonining bosqichlaridan biri kassa rejasini tuzish hisoblanadi. Budgetning kassa ijrosi quyidagi moliyaviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi: pul tushumlari va Yagona g‘azna hisobvarag‘i (YAG‘H)dan amalga oshiriladigan xarajatlar.


³ O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi “Byudjet tizimi to‘g’risida”gi 158-II-sod Qonuni.// <https://lex.uz/docs/27999>.

⁴ Qosimova G. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2013. 448 b.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi, 165-modda, 29.12.2021-y., 03/21/740/1209-sod. Davlat budgetining ijrosi to‘g’risidagi hisobot.// <https://lex.uz/acts/2304138>

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni Davlat budgeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo‘li orqali amalga oshiradi. Yagona g‘azna hisobvarag‘i (YAG‘H) G‘aznachilikning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan Davlat budgeti pul mablag‘lari jamlanadigan va undan Davlat budgeti mablag‘larini sarflash bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan hisob raqami hisoblanadi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i o‘tish sharoitida G‘aznachilik tizimining amal qilishi Davlat budgeti ijrosining sifat jihatdan yangi texnologiyasi hisoblanadi, bunda quyidagi holatlarga jiddiy e‘tibor qaratiladi, ya’ni barcha darajadagi budgetlar hisobidan amalga oshirilgan davlat budgeti xarajatlari va daromadlari bo‘yicha operatsiyalarning “G‘aznachilik” Dasturiy majmuida har kuni aks ettirilishi va shunday tarzda Davlat budgeti ijrosi haqidagi hisobotni istalgan sana va hisobot davri uchun tezkor shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur jarayonni G‘aznachilik orqali xarajatlar to‘lovining amalga oshirilishi ketma-ketligida ko‘rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. G‘aznachilik orqali xarajatlar to‘lovining amalga oshirilishi ketma-ketligi⁶

Yagona g‘azna hisob raqamidan foydalanimagan holda Davlat budgeti ijrosiga o‘tish quvidagi imkoniyatlarni beradi:

- budget tashkilotlarning tijorat banklaridagi ko‘plab bank hisob raqamlarida budget mablag‘lari tarqalishining oldini olish;
 - moliya resurslarining katta konsentratsiyasi va oqimini hisobga olgan holda to‘lovlarning budgetdan mablag‘ oluvchilardan tovarlar yetkazib beruvchilarga yetib borish tezligining oshishiga erishish;

⁶ Mansurov M.A. G‘aznachilik bo‘linmalarida budjet mablag‘larini sarflashda xarajatlarni to‘lash uchun ruxsatnomalar berilishi mexanizmidan foydalanish.//www.iqtisodiyot.uz

- budjet mablag'larini taqsimlovchilarining shaxsiy hisobvaraqlaridan mablag'larni sarflash bo'yicha barcha operatsiyalarni G'aznachilikda jamlash;

- g'aznachilik nazorat vazifalri qismini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi⁷.

Davlat budgeti g'azna ijrosi budget jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. G'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda budget tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirishda belgilangan istiqbol ko'rsatkichlari, tasdiqlangan rejalar va ishlab chiqilgan dasturlarning amaliyotdagi ijrosi qattiq nazorat qilinib, to'lov intizomiga rioya qilgan holda, xarajatlar to'lab beriladi"⁸.

Davlat budgeti pul mablag'larini boshqarish maqsadlari quyidagicha:		
Budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtafiga vaqtinchalik kassa tafovutlarini bartaraf etish	Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini o'z vaqtida to'lash	Yagona g'azna hisobvarag'i (YaG'H)da mavjud pul mablag'larini ishlatish

3-rasm. Davlat budgeti va budget tashkilotlari pul mablag'larini boshqarishning maqsadlari⁹

Xulosa tarzida shuni qayd etish lozimki, G'aznachilik faoliyati byudjet mablag'ları oqimlarini samarali boshqarish, budget xarajatlari joriy ijrosiga nisbatan kamroq kassa qoldiqlari bilan qanoatlanish va uning natijasida davlat budgetini balanslikka erishishga imkon yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020-2023-yillar davomida budget defitsiti ortib borishi an'nesi kuzatilmoxda. Istiqbolda budget taqchillikning 3 foizlik yuqori chegarasi bo'yicha kiritilgan "Fiskal qoidalar"ga qat'iy amal etilishini ta'minlash zarurligi amaliy manbalarga asoslanib ko'rsatib berildi.

Davlat budgeti xarajatlari tarkibida Ta'lim xarajatlari ortib borayotganligi, xususan, oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasida sezilarli o'sish kuzatilayotganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi "Budget kodeksi" O'RQ-360-sonli Qonuni.

⁷ Kilberg V. Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tish sharoitida budgetning g'azna ijrosini tashkil etish//Moliyachi ma'lumotnomasi//2012. №6. 13-bet.

⁸Qosimova G., Elmurodov U. G'aznachilik sharoitida budget tashkilotlaridagi risklarni boshqarish. <http://bdm.uz/ru/birjaexpert/-15608-> jurnal "BIZNES - EKSPERT", 20.06.2012.

⁹ Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik tizimi asoslari/Iqtisod-moliya

2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi O'RQ-813-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuni
4. Robert D. Lee, Ronald W. Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition (July 30, 2012). USA.
5. Budjet ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. -T.: TMI, 2011, 113 - 114 b.
6. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYUN ISTIQLOL MO'JIZASI. 2009.
7. Pulatov D., Nurmuxamedova B., "G'aznachilik" Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
8. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.
9. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.
10. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
11. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
12. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
13. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
14. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
15. Jumaniyazov, I., & Mahmudov, M. (2022). Experience of foreign countries in attracting foreign investment. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 12(5), 32-37.
16. Jumaniyozov, I. T., & Abdumannobov, A. M. (2020). MANAGING PUBLIC DEBT. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 3-7).

17. Jumaniyozov, I. T., & Bakhodirkhujayev A.F. (2020). ISSUES AND CHALLENGES FOR THE IMPLEMENTATION OF MACROPRUDENTIAL POLICY IN UZBEKISTAN. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 8-11).
18. T. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. Science, research, development, 16.
19. Жуманиязов, И. Т. (2023). РЕСПУБЛИКА ВА МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 109-120.
20. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbli. Science and Education, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>
21. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвеститцион фаолияти. Science and Education, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
22. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. Science and Education, 4(6), 881–887. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
23. Inomjon, J., & Sarvar, A. (2023). SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING MOLIYAVIY MABLAG 'LARINI SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 102-108.
24. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O 'RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 121-127.
25. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 139-146.
26. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
27. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
28. Turayevich, J. I., & Akmal o'g'li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
29. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of

multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335.
<https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>

30. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(1), 1–8. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/7/article/view/479>

31. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>

32. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(11), 71–76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>

33. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>

34. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 104–114. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5204>

35. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. *Academia Repository*, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>

36. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *European Scholar Journal*, 5(3), 5-8. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/4393>

37. Shuhrat ABDULAZIZOV. ESG STANDARTLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Finance and Digitalization. Vol. 3 Issue 01, 2024
38. Shuhrat Botirjon o'g'li Abdulazizov. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliyaviy strategiyasi va ularning moliyaviy holati tahlili "Science and Education" Scientific Journal ISSN 2181-0842, May 2023 / Volume 4 Issue 5
39. Abdulazizov Shukhratjon Botirjon ogli. (2023). ANALYSIS OF CORPORATE FINANCIAL STRATEGY OF JOINT STOCK COMPANIES AND THEIR FINANCIAL STATE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(6), 46–54.
40. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.